



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA HARAKATLI O'YINLARNI TASHKIL QILISH

Maxmanazarova Sabina Shuhrat qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Jismoniy madaniyat fakulteti

xotin qizlar sporti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

sabinamaxmanazarova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15278821>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-Aprel 2025 yil

Ma'qullandi: 23-Aprel 2025 yil

Nashr qilindi: 25-Aprel 2025 yil

KEYWORDS

*egiluvchanlik, harakatchanlik,
musobaqalar "quvnoq
Harakatli o'yinlar, sport,
boshlang'ich, bolalar,
sinf,bolalar" "kimchaqqon"
yugurish*

ABSTRACT

Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarida harakatli o'yinlarni tashkil etish va ularni o'rgatish o'quvchilarda bilim ko'nikmalarani shakllantirish va uni o'quvchilar orasida keng tadbiiq etish va o'quvchilarda kasbga bo'lgan shijoatni oshirish.

O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida shakllanishi va uning istiqlol sari dadil borishi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy sohalarni yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Bu yo'lda sog'liqni saqlash, fan, madaniyat, texnika, iqtisod, ta'lim-tarbiya, jismoniy tarbiya va sport hamda boshqa sohalarda chuqur islohotlar olib borilmoqda.

Ma'lumki, bu jarayonlarni hozirgi kun talablari asosida tashkil qilish va boshqarish O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»dagi bosh g'oyalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Maktab o'quvchilarida axloqiy fazilatlarini milliy harakatli o'yinlar orqali shakllantirish jamiyatimizdagi madaniy-ma'rifiy sohalarda ilgari bosilgan qadam bo'lib hisoblanadi. Milliy tavsifga ega bo'lgan jismoniy mashqlar, sport va harakatli o'yinlarning xilma-xilligi ularni o'quv-tarbiya jarayonining juda ko'p sohalarida qo'llash imkonini beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga jismoniy tarbiya berish maqsadi har tomonlama etuk: chiniqqan, sof fikrli, mard, sabotli, qat'iyatli, kelajakda Vatanni himoya qila oladigan shaxslarni kamol toptirishdan iborat. Harakatli o'yinlar O'yinlar hayotdagi to'siqlarni engish hamda har xil qobiliyatlarni ro'yobga chiqarish bilan bog'liq bo'lgan jismoniy mashqlarni o'z ichiga oladi.

Milliy xalq o'yinlaridan foydalanishda, ularni qo'llashda shuni hisobga olish kerakki, bu yoshdagi bolalar aniqlikni talab etadigan mayda harakatlarga qaraganda keng, kuchli harakatlarga ancha moyil bo'ladi. Buni bolalar yosh davrlarini ishlab chiqqan buyuk pedagog YA.N.Komenskiy ham o'z vaqtida ta'kidlagan edi. Umuman bu yoshda bolalar juda ham harakatchanligi bilan ajralib turadi.

Harakatchanlik esa maxsus, oqilona tashkil etilishni, harakatga soluvchi yurish-turish shakllarining to'g'riligini talab etadi. Bolalarning bu yoshida tormozlanish va qo'zg'alish jarayonlarini muvozanatligini yuzaga keltirishda kattalar talabining tizimliliigi va o'zini tuta

bilishga odatlantirish katta rol oʻynaydi. Bolalarda maktabda oʻqiy boshlagan birinchi kundanoq mehnatga muhabbat, ishchanlik, boshlagan ishini oxiriga yetkazish, sabotlilik xususiyatlarini shakllantirish imkoni yaratiladi. Bunda jismoniy madaniyatning barcha zamonaviy vositalari bilan birga oʻzbek xalq milliy oʻyinlari juda qoʻl keladi, chunki bu oʻyinlar bolalarni jismoniy, ruhiy, maʼnaviy jihatdan tarbiyalashning barcha jihatlarini oʻz ichiga ola biladi.

Milliy xalq oʻyinlari va milliy sport turlari tarixiy taraqqiyot jarayonida jiddiy oʻzgargani, har bir iqtisodiy tuzum ularning mazmun va qoidalarida oʻzining muayyan izini qoldirgani haqida yuqorida toʻxtalgan edik. baʼzi oʻyinlarning nomi va qoidalari hozircha saqlanib qolgan. Ana Shunday oʻyinlardan foydalanishda ularning bolalarga jismoniy taʼsirdan tashqari tarbiyaviy taʼsir koʻrsatishini ham azardan soqit qilmaslik, ijodiy qoʻllashni maqsadga muvofiq lashtirish kerak.

Masalan, “Uloq” oʻyini deganda odatda ot bilan oʻynaladigan, chavandozlar haqiqiy uloq uchun kurashadigan qadimiy koʻpkari oʻyini tuShuniladi. Bolalarga moʻljallangan “Uloq” oʻyini otsiz oʻtkaziladi, oʻyinchilar bir parcha echki terisi yopishtrilgan toʻldirma toʻpni olish uchun kurashadilar. Oʻyin qoidalarining baʼzi jihatlarini kattalarnikiga oʻxshab ketadi. Tezkorlik, chaqqonlik va kuchlilikni tarbiyalovchi bu oʻyin katt tarbiyaviy ahamiyatga ham ega, bunda bir-birini hurmt qilish, samimiy munosabat, qoʻpollik qilmaslikka kata eʼtibor briladi.

Xalq milliy harakatli oʻyinlari bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda muhim roʻl oʻynaydi. Chunki oʻyinlar oʻquvchilarning qiziqishlarini oshiradi, ularga zavq bagʻishlaydi, ish qobiliyatlarining tezroq tiklanishini taʼminlaydi. Oʻyinlar tufayli bolalar charchashni unutadilar, mashqlarni diqqat bilan bajarishga harakat qiladilar.

Xalq milliy oʻyinlarining barchasi bolalarning organizmlariga yaxlit taʼsir oʻtkazadi. Shuning uchun ham oʻyinlarga umumiy jismoniy taʼsir koʻrsatuvchi sifatida qarash lozim. Bironta oʻyin yoʻqki, u ayrim jismoniy sifatni rivojlantiruvchi vosita boʻlib hisoblanmasin. Masalan, “Doʻppi kiyishda kim gʻolib?” milliy oʻyinida faqat chaqqon boʻlibgina qolmay, balki epchil, sezgir boʻlishga ham daʼvat etiladi. Jismoniy madaniyat tizimidagi barcha soha va bosqichlarning birdan-bir va yagona maqsadi-insonni toʻgʻri yashashga tayyorlashdir. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari jismoniy tarbiyasining vazifalari bolalarning yoshiga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlanadi, lekin bunda jismoniy madaniyatning umumiy maqsadi koʻzdan qochirilmaydi.

Maktabda boshlangʻich sinf oʻquvchilari jismoniy tarbiyasida sogʻlomlashtirish, taʼlim berish va tarbiya berish vazifalarini amalga oshirish koʻzda tutiladi. Xalq milliy oʻyinlari orqali bu vazifalarni yaxlit holda bajarish imkoniyatlarikoʻproq koʻrinadi. 7-8 yoshli yaʼni boshlangʻich sinf oʻquvchilari jismoniy tarbiyasining eng asosiy vazifasi bola hayotini muhofaza qilish va uning sogʻligini mustahkamlash, uning organizmini chiniqtirish yoʻli bilan oʻzini himoya qilish va turli kasalliklarga chidamlilik xislatlarini oshirish, tashqi muhitning noqulay sharoitlariga bardosh berishga oʻrgatishdan iborat.

Milliy oʻyinlar bilan shugʻullanish jarayonida mehnat tarbiyasi amalga oshiriladi. Bolalarning salomatligi yaxshilanadi, ularda harakat malakalari shakllanadi, mehnat faoliyati uchun zarur boʻlgan jismoniy fazilatlar rivojlanadi.

Bolalarni mehnatga tayyorlashda jismoniy madaniyatning, jumladan, xalq milliy oʻyinlarining tutgan oʻrnini ularga tushuntirish va bu tushunchani ularning ongida shakllantirish gʻoyat muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari, bu yoshdagi bolalar uchun harakatli o'yinlar jismoniy tarbiya darsining asosi bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun maktab dasturida harakatli o'yinlarga boshqa materiallarga nisbatan ko'proq o'rin ajratiladi. Buning sababi shundaki, dasturda kiritilgan turli xil jismoniy mashqlarni bolalar xilma-xil o'yinlar yordamida tez o'zlashtirib olishlari mumkin, shunday, masalan, yugurish, oshib o'tish, muvozanatni saqlash, yurishlar. Bu esa bolalarning yosh xususiyatiga mos keladi: agarda ular bolalarga tushunarli, aniq tasavurdagi ko'rinishda bo'lsa, ular ayrim harakatlarni yengil o'zlashtiradi.

Masalan, yugurishni maxsus tashkil qilingan mashqda o'rgatilsa, u bolalarni tezda charchatib qo'yishi mumkin va ular uni o'yindagidan nisbatan birmuncha yomon bajaradi, chunki ularni oldida aniq maqsad turadiki (bir tomondan ikkinchi tomonga tez yugurib o'tishi kerakki, chunki uni tutib olmasliklari kerak) va unga ma'naviy mazmun beruvchi mashq yengil, jonli shaklda bo'lishi kerak. Shunday qilib 1-2-sinfda jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlardan jamoada o'quvchilarning faol xulqini tarbiyalash maqsadida foydalaniladi: yugurishni tartibli, bir-birini turtmasdan o'rgatish; maqsadga erishish uchun hamjixatlik bilan harakat qilishga o'rgatiladi. O'quvchilarda harakatli o'yinlarni bajarish barcha o'yinlardan qiziqarli bo'lib o'tadi va bu sport mashg'ulotlari ham darslarga qaraganda ancha harakatchan va o'quvchilar uchun juda qiziqarli bo'lib o'tadi. Boshlang'ich sinf bolalarining qiziqishlari asosan, oyoq mashg'ulotlari va qo'l mashg'ulotlarini o'rganish qanchalik qiyin va mashshaqatli bo'lmasin bolalarni ushbu mashg'ulot sari chorlayveradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida harakatli o'yinlarni o'tish chaqqaonlik, tezlik, chidamlilik, egiluvchanlik sifatlarini oshirishda yordam beradi

O'qituvchi har bir darsda aniq vazifasidan kelib chiqqan xolda darsning asosiy vazifasini qo'yishi mumkin: o'yinda qo'lni harakatlashtirish bilan musiqa sadolari ostida ritmik yurish malakalarini takomillashtirish («Charxpalak»); o'yinda («Bo'ri zovur ichida») 1 m kenglikdagi zovurdan yugurib kelib, uzunlikka tabiiy sakrashni takomillashtirib borish; o'yinda, sherigiga turtilib ketmaslik uchun chap berib yugurish tezligini takomillashtirish («Quvnoq bolalar», «Kimchaqqon»); o'yinda signal bo'yicha («Ikki sovuq», «Kim o'z tomoniga to'p olib kelish») yugurishni bilishni tarbiyalash; o'yinda («Kimning ovozi», «Taqiqlangan harakat») diqqat-e'tiborni, ijodiy tassavur qilishni tarbiyalash va boshqalar. 1-2-sinfdagi ayrim darslar to'liq harakatli o'yinlardan tashkil topgan bo'lishi mumkin.

Odatda, o'yinga bag'ishlangan dars 4-5 ta o'yindan iborat bo'ladi. O'yin turli-tuman harakat elementlaridan, xarakteri har xil bo'lishi mumkin. O'yindan tuzilgan dars o'quvchilardan ayrim o'yin malakalarini va uyushqoqlik bilan tartibli ravishda amalga oshirilishni talab qiladi. Bunday darslarda uchta yoki to'rtta o'yin bolalar oldindan o'ynab o'rganilgan bo'lishi, 1-2 tasi yangi o'rgatiladigan o'yinlar bo'lishi shart. O'yin darsini uslubiy jihatdan to'g'ri o'tkazilganda katta tarbiyaviy tomoni ko'proq yetarli bo'lmaydi, chunki har bir o'quvchining o'yindagi malakalarini to'g'ri shakllanishini kuzatib borish murakkabroq bo'ladi.

Xulosa

O'quvchilar jismoniy tarbiyasining vazifalari doimo, jumladan, milliy xalq o'yinlarini o'rganish va o'rgatish jarayonida ham uyg'un holda hal etiladi. Bu vazifalar butun jismoniy madaniyat tizimining bolalarga ta'sir etishi tufayligina muvaffaqiyatli bajarilishi mumkin. Buning uchun maktabning butun pedagogika jamoasi birgalikda ahil xarakat qilishi, maktabdamashg'ulotlarni tashkil etishning turli shakl va usullaridan, ayniqsa, milliy xalq o'yinlarida, barcha vositalari yaxlitligi (kompleksi) dan foydalanish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Асланова М. Бошланғич синф жисмоний тарбия дарсларида ҳаракатли ўйинлар-дан фойдаланиш. –Т.: Фан ва технология, 2008.-110 б.
2. Weiner В. Theorien der Motivazion. -Stuttgart: Klett, 1996.- 167 p.
3. Асланова М. Бошланғич синф жисмоний тарбия дарсларида ҳаракатли ўйинлар-дан фойдаланиш. –Т.:Фан ва технология, 2008.-110 б. Гримак Л. П. Резервы человеческой психики в современном спорте.-М. Атлант,1999.-238 с.
4. Atayev A.K. Yosh o'smirlarga o'zbek kurashini o'rgatish uslubiyoti. Jismoniy tarbiya instituti va oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya fakultetlari uchun o'quv qo'llanma.T.: O'zDJTI, 2005. – 132 b.
5. Axmatov M.S. Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sport – sog'lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. Monografiya. T.: O'zDJTI, 2005. – 280 b.
6. Salimov G'M. Milliy harakatli o'yinlar asosida 7-10 yoshli o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish samaradorligi.: Dis. ... kand. ped. nauk. – T., 2007.
7. ARZIBAYEV, Q. (2024). O'SMIR SPORTCHILARDA MAQSADGA ERISHISH MOTIVATSIYASI TADQIQI. News of the NUUZ, 1(1.9), 54-57.
8. Арзибаев, К. О. (2015). РОЛЬ МОТИВАЦИИ В ЕДИНОБОРСТВЕ. Наука и мир, (3-3), 103-105.
9. Арзибаев, К. О. (2013). МОТИВАЦИЯ ДОСТИЖЕНИЯ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР СПОРТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. SCIENCE AND WORLD, 93.
10. Арзибаев, К., & Бердалиева, Ю. (2013). ВЛИЯНИЕ МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЙ НА МОТИВАЦИЮ ЮНЫХ СПОРТСМЕНОВ. SCIENCE AND WORLD, 14.
11. Arzibayev, Q. (2023). THE PROBLEM OF MOTIVATION OF SPORT ACTIVITY IN THE ANALYSIS. European journal of education and applied psychology, (2), 82-89.
12. Arzibayev, Q. (2023). THE APPEARANCE OF MOTIVES FOR SPORTS ACTIVITY IN ANALYSIS. Modern Science and Research, 2(10), 694-704.
13. Arzibayev, Q. (2023). O'smir sportchilarda sport bilan shug'ullanish motivlarini o'rganish. Sport ilm-faning dolzarb muammolari, 1(3), 18-25.
14. Турсунов А. 2022 ЧАҚИРУВГА ҚАДАР БОШЛАНҒИЧ ТАЙЁРГАРЛИК МАШҒУЛОТЛАРИДА ПЕДАГОГИК ВА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШ ВА УЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ТОМОНЛАРИ Science and innovation, 1(B3), 432- 434
15. Sharipova Nodira Shavkat Qizi, . (2024). TEACHING ENGLISH TO YOUNG LEARNERS USING CLIL METHOD IN CLASS. International Journal of Pedagogics, 4(06), 161–164. <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume04Issue06-29> .
16. Abdurasulov, J. (2024). PEDAGOGICAL PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF MILITARY PATRIOTIC EDUCATION IN GENERAL SECONDARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS. В INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY (Т. 4, Выпуск 7, сс. 38–40). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12721051>
17. Abdurasulov J. (2024). HARBIY PEDAGOGIKANING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI. Молодые ученые, 2(6), 48–52. извлечено от <https://inacademy.uz/index.php/yo/article/view/28164>
18. Jo'rayev, S. ., & Abdurasulov, J. (2024). SUBJECT, TASKS AND CONTENT OF STUDYING THE BASICS OF MILITARY-PATRIOTIC EDUCATION. Академические исследования в современной науке, 3(7), 149–153.извлечено.

19. Абдурасулов, Ж. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСВОЕНИИ УРОКОВ ИСТОРИИ.
20. Abduqodirova, D., & Abdurasulov, J. (2025). YOSHLARDA HARBIY-VATANPARVARLIK TUYG'USINI TAKOMILLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 4(1), 50–53. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/zdpp/article/view/42882> 13.

